
Hech kim mehr va e'tibordan chetda emas!

Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularni mehnat faoliyatiga keng jalb qilish orqali hayot sifati va darajasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Har yili 3-dekabr sanasida nogironligi bo'lgan shaxslar kunining nishonlanishidan asosiy maqsad ham butun dunyoda amalga oshiriladigan dastur va loyihalarda nogironlar boshqa nogiron bo'lmagan kishilar bilan teng huquqlilik asosida ishtirok etishini, nogironlarning manfaatlari, huquqlari inobatga olinishini, barcha mamlakatlarda nogironlarning qadr-qimmatini himoyalovchi qonunlar va tartib-taomillarning joriy etilishini ta'minlab, barcha uchun ochiq va do'stona bo'lgan jamiyat qurishdan iboratdir.

Qo'shtepa tumani hokimligi tomonidan 3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni munosabati bayram tadbiri tashkil etildi.



Tadbirni tuman hokimi kirish so'zi bilan ochib berdi va yurtimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning manfaatlari himoya qilinishi, ularni jamiyatimizning to'laqonli a'zosi ekanliklarini ko'rsatish maqsadida turli tadbir va islohotlar amalga oshirilayotganligi va paralimpiya bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqalarda ham chempionlarimiz soni ortib borayotganligi xususida to'xtalib o'tdi, hamda sovg'alar ulashdi.







Tadbir davomida Paralimpiya bo'yicha jahon arenalarida bir necha bor g'oliblik shoxsupasini egallagan Yorqinbek Odilov so'zga chiqib, sport bilan muntazam shug'ullanish natijasida erishgan yutuqlarini ta'kidlab o'tdi.



“Xalqaro nogironlar kuni”ga bag‘ishlab o‘tkaziladigan bugungi tadbirlar ham nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatda o‘z o‘rinlarini egallashlariga imkoniyatlar yaratish borasida respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar, bu borada Muhtaram Prezidentimiz tomonidan nogironlarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik, keng jamoatchilikning ham bu savobli ishlarda faol ishtirokining yorqin namunasidir.



Tadbirda san'atkorlar tomonidan kuylangan kuy-qo'shiqlar, nogironlar tomonidan ijro etilgan raqslar ularning kayfiyatini ko'tarishga va hayotga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

2019-12-03 14:41:56